

O`ZBEK ADABIY TILINING TARIXI VA ZAMONAVIY O`ZBEK TILINING PEDAGOGIK O`RNI

*Guliston davlat pedagogika instituti
Tillarni o`qitish fakulteti o`zbek tili va
adabiyot yo`nalishi 1-bosqich talabasi
R. Abduhakimova*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy o`zbek tilining ta`lim tizimidagi pedagogik ahamiyati yoritiladi. O`zbek adabiy tili qadimiy turk tili manbalariga borib taqaladi. Jumladan, Orxon-Yenisey bitiklari va Qutadg`u bilig kabi yozma yodgorliklar til taraqqiyotida muhim o`rin tutadi. Keyingi davrda Alisher Navoiy ijodi o`zbek adabiy tilining rivojlanishida alohida bosqich bo`lib, u eski o`zbek adabiy tilining me`yorini mustahkamladi.

**Kalit so`zlar:** O`zbek adabiy tili tarixi, eski o`zbek tili zamonaviy o`zbek tili pedagogik ahamiyat ta`lim tizimi nutq madaniyati davlat tili milliy qadriyatlar.

Annotation

In diesem ARTIKEL werden die Entstehungs und Entwicklungsphasen der usbekischen LITERATURSPRACHE sowie die padagogische Bedeutung der modernen usbekischen Sprache im Bildungssystem untersucht. Die usbekische Literatursprache geht alte turkische Sprachquellen zuruck. Bedeutende schriftliche Denkmaler wie die Orxon –Yenisey bitiklari und das Werk Qutadg`u bilig spielten eine wichtige Rolle in der Sprachentwicklung. In der spateren Periode hatte das Schaffen von Alisher Navoiy einen besonderen Einfluss auf die Festigung und Weiterentwicklung der alten usbekischen Literatursprache.

Schlüsselwörter:

Usbekische Literatursprache, Geschichte der usbekischen Literatursprache, Altes Usbekisch, moderne usbekische Sprache, padagogische Bedeutung, Bildungssystem, Sprachkultur, Staatssprache, nationale Werte.

Annotation

This article examines the formation and development stages of the Uzbek literary language, as well as the pedagogical importance of the modern Uzbek language in the education system. The Uzbek literary language originates from ancient Turkic linguistic sources. Important written monuments such as the Orkhon-Yenisey inscriptions the work Qutadg`u Bilig played a significant role in the development of the language. In the later period, the works of Alisher Navoi had a special influence on the consolidation and further development of the old Uzbek literary language.

Keywords: Uzbek literary language, formation, development, ancient Turkic sources, Orkhon –Yenisey inscriptions, Qutadgu Bilig, Alisher Navoi, influence, education system.

O'zbek tili O'rta Osiyodagi qoraqalpoq, turkman, qirg'iz, MDH davlatlaridan Volga bo'yidagi tatar boshqird, chuvash, Kavkazdagi ozarbayjon, qumuk, qorachoy, bolqar, qrimdagi, gagauz, qrim –tatar, chet mamlakatlaridagi uyg'ur, usmonli turk kabi qator tillar bilan birgalikda alohida til guruhini tashkil etadi. BU guruh fanda turkiy tillar oilasi deb yuritiladi. Turkiy tillarning fonetik, lug'at tarkibi jihatdan bir-biriga yaqinlik darajasi qadimiy hodisadir. Bu turkiy tillar azaldan qandaydir bir til manbai, negiziga ega bo'lganligidan darak beradi. Turkiy tillar leksikasining umumiy xususiyatlari quydagicha;

1. O'zbek aksariyat o'rinlarda sh qolipida bo'ladi.

2. Turkiy so'zlarda ot –fe'l omonimligi ko'p uchraydi; to'y, tut, yoz. O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda ko'p bo'lganli so'zlar juda kam. Asosan bir bo'lg'inli; ot, ov, oy; ikki bo'lg'inli; ikki, olti, etti, va hakoza.

3. Turkiy so'zlarda tarixiy fonetik o'zgarishlar sezilib turadi; yig'ac –yagac jil –yil, jilan –yilan, yilan –ilon.

4. Tana a'zolari nomlari, asosan, turkiy qatlamga oid ko'z, quloq, til, bas, qas,

5. Tub fe'llar turkiy hisoblanadi ber, bil, qac, kel, ko'z va hakoza. Barcha turkiy tillardagi singari so'zlar ko'p ma'nolidir; bosh, tosh, tish, uch.

6. Sonlar bes etti olmoshlar men, siz turkiy qatlamga mansubdir.

7. Turkiy tillarda so'z tartibi quydagicha; asos +so'z yasovchi +lug'aviy shakl yasovchi +sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha. Boshqa turkiy tillardagi kabi o'zbek tilida affikslar so'z oxiriga qo'shiladi.

Hozirgi turkiy tillarda unli va undosh tovushlar miqdori bir xil emas tuva, gagauz, chulim tatar tillarida unli va undosh variantlari bilan hisoblaganda yigirmatadan ortadi. Masalan gagauz tili fonetikasida 18 ta unli fonema beriladi a, I, o, u, e, I, o, u, a, aa, u, oo, uu, ee, ii, o; o u; u a; a. Turkiy tillarning aksariyati unli fonemalar 8 ta; a, a, o, o, u, u, i, i. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 ta unli fonema mavjud.

Turkiy tillar uyg'ur tilida birinchi bo'lg'indagi a ning keyingi bo'lg'indagi i ta'sirida umlautlashuvi kuzatiladi eto uning oti belik baliq, elip besim ko'plikda basim.

O'zbek tillining undoshlar tizimi boshqa turkiy tillarga mos tushadi. Ammo turkiy tillarda ba'zilar undoshlar boshqacharoq ishlatiladi. Turkiy tillar undosh tovushlar miqdori jihatidan, deyarli, farqlanmaydi. Turkiy tillar fonetikasiga bag'ishlangan adabiyotlarda undoshlar 20 gtdan 30 tagacha bo'lgan miqdorda ko'rsatiladi. Sof turkiy so'zlar sonor tovush bilan boshlanmaydi bunday so'zlar uchrasa, ular boshqa tildan o'zlashgan yoki keyingi fonetik taraqqiyot natijasida

yuzaga kelgan bo`ladi .Boshqa undoshlar esa so`zning boshida ham ,oxirida ham keladi.

O`zbek adabiy tilining rivojlanishi uch asosiy davrga bo`linadi ;

1. Eski o`zbek davri [X-XV asrlar]-bu davrda adabiy til asosan turkiy va fors-islomiy an`analar aralashuvida shakllangan . Alisher Navoiy ijodi bu davrning eng yorqin namunasidir .U adabiy tilni boyitib ,xalq adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo`shgan

2. O`rta o`zbek davri [XVI –XIXasrlar]-bu davrda she`riyat va nasrda boy matnlar yaratilgan ,shevalar va mahalliy lahjalar tilning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatgan .Shu davrda adabiy til va xalq nutqi o`rtasidagi bog`liqlik kuchaygan .

3. Zamonaviy o`zbek davri [XX-XXI asrlar ]-zamonaviy adabiy til normativlashtirilgan va davlat tili sifatida rasmiylashtirilgan .Lotin yozuvi asosida shakllangan zamonaviy adabiy til bugungi kunda maktab va oliy ta`lim tizimida keng qo`llanilmoqda.

Zamonaviy o`zbek tili pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega ;

1.Ta`lim vositasi –o`quvchilarga fanlarni o`rgatishda,bilim va ko`nikmalarni yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi .

2.Milliy qadriyatlarni shakllantirishda –til orqali tarix ,madaniyat va milliy an`analar o`rnatiladi .

3.Nutq madaniyati –o`quvchilarda to`g`ri aniq va ravon nutqni rivojlantirish imkonini beradi

4.ijodiy faoliyatni rivojlantirish –she`riyat ,proza va ilmiy ishlarda til vositasi sifatida ishlatiladi .

Zamonaviy o`zbek tili bugungi ta`lim tizimining asosiy tayanch vositasi hisoblanadi. U nafaqat muloqat quroli ,balki bilim berish , tarbiyalash va shaxsni shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi .Ta`lim jarayonidagi asosiy vosita O`zbekiston Respublikasida o`zbek tili davlat tilin sifatida barcha ta`lim bosqichlarida qo`llaniladi. Maktabgacha ta`limdan boshlab oliy ta`limgacha bo`lgan jarayonda fanlar asosan O`zbek tilida o`qitiladi .Til orqali;

Ilmiy tushuncha shakllanadi

O`quvchilarning ilmiy tafakkuri rivojlanadi

Mustaqil fikirlash ko`nikmasi paydo bo`ladi .Pedagogik jarayonda o`zbek tilida o`quvchilarda ;

To`g`ri talaffuz

Imloviy savodxonlik

Grammatik to`g`rilik

Ravon va mantiqiy nutq .

Milliy ong va qadriyatlarni tarbiyalash .Til –millat ko`zgusi .Zamonaviy o`zbek tili orqali ;

Milliy tarix

Adabiyot

Urf odat ananalar

Ma'naviy meros yosh avlodga yetkaziladi .Shu orqali o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissi shakllanadi .

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish .Zamonaviy pedagogikada kommunikativ yondashuv muhim hisoblanadi .O'zbek tili;

Muloqot madaniyatini ,suhbat olib borish qobiliyatini ,bahs munozara yuritish ko'nikmasini rivojlantiradi .

Zamonaviy o'zbek tiliing pedagogik o'rni juda keng va chuqurdir .U nafaqat ta'lim vositasi ,balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi ,milliy ongini shakllantiruvchi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omildir . O'zbek adabiy tili uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib ,xalqning ma'naviy ,madaniy va ilmiy merosini o'zida mujassam etgan boy til tizimidir .Uning taraqqiyoti qadimgi turkiy yozma manbalardan boshlab ,mumtoz adabiyot davri jadidchilik harakati ,sovet davri vab mustaqillik yillarigacha uzluksiz davom etib kelmoqda . Har bir tarixiy bosqich adabiy tilning boyishi ,me'yorlashuvi va takomillashuviga xizmat qilgan .Zamonaviy o'zbek tili esa bugungi kunda davlat tili sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda .Ayniqsa uning pedagogik o'rni beqiyosdir . Ta'lim tizimida o'zbek tili bilim berish ,tafakkurni rivojlantirish kabilardir.

O'zbek adabiy tili qadimiy turkiy ildizlardan o'rxun –enisey ,qadimgi uyg'ur shakllanib CHig'atoy tili va Navoiy ijodi orqali boyidi hamda XXasrda jadidlar va yangi adabiy me'yorlar asosida modernizatsiya qilindi .Zamonaviy o'zbek tili ta'lim tizimida asosiy muloqot va o'qitish vositasi bo'lib milliy o'zlikni anglash ilmiy pedagogik salohiyatni yuksaltirish va global integratsiyada muhim o'rin tutadi .O'zbek adabiy tilning tarixi .Qadimiy va o'rta asrlar ;Turkiy tillar asosida shakllangan bo'lib asrlar davomida shakllangan .XV-XVI –asrlarda Alisher Navoiy CHig'atoy tilini yuksak adabiy darajaga ko'targan .Yozuv islohatlar XX asr boshigacha arab alifbosi ,1928-1940 yillardan lotin yanalif 1940 -1992 yillarda kirill alifbosi qo'llanilgan .Zamonaviy bosqich ;1993 yildan boshlab lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qaytish jaroyani boshlangan ,ayni payta ta'lim tizimida lotin yozuvlari asosiy o'rin tutadi .Zamonaviy o'zbek tilining pedagogik o'rni . Ta'lim tili;Ta'lim muassasalarida maktab ,litsey ,oliygoh o'qitish darsliklar yaratish va ilmiy izlanishlar olib borishning asosiy qurolidir .Me'yorlashtirish .Hozirgi o'zbek adabiy tili nutq me'yorini tartibga soladi , tallafuz va imlo qoidalarini belgilaydi .,Milliy o'zlik yosh avlodga o'zbek adabiyoti ,tarixi va madaniyatini o'rgatish orqali milliy g'urur va tafakkurni shakllantiradi .ilmiy pedagogik izlanishlar ;Zamonaviy o'zbek tili grammatikasi ,leksikologiyasi va terminologiyasini boyitish bo'yicha faol tadqiqotlar olib borilmoqda .O'zbek tili tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tib ,bugungi kunda ta'lim va

ijtimoiy hayotning asosi sifatida pedagogik faoliyatning uzviy qismiga aylangan O'zbek tili turkiy tillar turkimiga kiruvchi yirik tillardan biridir. Hozirgi o'zbek tili adabiy til rivojlangan, ijtimoiy mavqeyi yuksalgan, sayqal topgan, fonetik va leksik Grammatik jihatdan me'yorlashgan milliy tildir. Tilning paydo bo'lishi masalasi zamonlardan buyon kishilarni qiziqtirib keladi. Antik davrda ham tilning kelib chiqishi haqida bir qancha nazariyalar yuzaga kelgan. Antik davr faylasuflari bu masalada bir –biriga qarama qarshi bo'lgan ikki hil nazaryani ilgari surdilar. Ularning ba'zilar tili tabiiy yo'l bilan paydo bo'lgan, ya'ni so'z va predmetlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'lanish kishilar predmet va narsalarni tabiiy holda bilib olishgan, til ilohiy bir kuch tomonidan yaratilgan deb hisoblaydilar. Bu guruhdagi faylasuflarni biz fanda idealist deb nomlab keladik. Ayrim faylasuflar tili kishilarning o'zaro bir –biri bilan kelishi natijasida paydo bo'lgan, ya'ni tili ijtimoiy mehnat yuzga keltirilgan, degan nazaryani yaratganlar va ular materialistlar deb ataladi. Ularning ayirimlari kishilarning o'zaro kurashi natijasida aloqa qilish ehtiyojidan kelib chiqan deb hisoblasa ba'zilar ayrim shaxslarning o'z fikrini, avval o'zi uchun, keyin boshqalar uchun bildirish natijasida kelib chiqan deb hisoblaydilar. Shu nazariyalarga ko'ra avvalo ularni ikki guruhga ajratib, tilshunoslik fanida ularning birinchisi ijtimoiy nazariya, ikkinchisi individual nazariya deb nomlanadi. Individual nazariya ko'ra tilning paydo bo'lishi ovoz tovushga taqlid va undov nazariyasi asosida yuzaga kelgan. Mehnat qilish, mehnat qurollarini yasash jarayonida odamlar brogan sari uyishib bordilar, natijada kishilik jamiyati yuzaga keldi, jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida bir –biriga nimadir aytish zaruriyatli tug'uldi. Bu zaruriyat ehtiyoj esa tili yaratdi. Til bilan ayni bir vaqtda tafakkur paydo bo'ldi. Davrlar o'tishi bilan buyk o'zgarishlar tili va tafakkurning takomillashuvi uchun shart –sharoit yaratib berildi.

Mustaqillik davri va hozirgi zamon 1991 yil hozirgacha. 1991 –yil O'zbekiston tarixida tub burilish yasagan davr bo'ldi –mamlakat mustaqillikka erishdi va shu bilan birga milliy qadriyatlar, madaniyat hamda tili masalasiga alohida e'tibor qaratila boshladi. O'zbek tili aynan shu davrdan boshlab davlat tili sifatida o'zining qonuniy maqomiga ega bo'ldi. Aslida bu yo'ldagi muhim bir qadam 1989-yil 21 oktabrda tashlangan edi –o'sha kuni "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, o'zbek tilining huquqiy maqomi belgilandi. Ushbu qonun orqaligina emas, balki mustaqillikning o'zi ham o'zbek tilining chinakam yuksalish bosqichini boshlab berdi. Mustaqillik yillarida o'zbek tili hayotining barcha jabhalariga –qonunchilik, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, ilmiy, va ijodiy faoliyat sohalariga chuqur kirib bordi. Davlat idoralari, oliy o'quv yurtlari va maktablarda hujjatlar yuritilishi to'liq o'zbek tiliga o'tkazildi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan tili siyosati bo'yicha turli davlat dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Jumladan, lotin yozuviga o'tish bo'yicha qarorlar qabul qilindi. Lotin alifbosiga o'tish orqali o'zbek tili xalqaro maydonga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi va texnologik taraqqiyot bilan uyg'unlashdi.

. O'zbek tilining ommaviylashuvi va boyishida zamonaviy axborot vositalarining xususan ,internet va ijtimoiy tarmoqlarning roli beqiyosdir .Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda bloglardan, veb –saytlarda ,hatto mobil ilovalarda ham o'zbek tilida foydalanilmoqda .Raqamli vositalarda o'zbek tilini keng keng joriy etish orqali tilning nafaqat ommabopligi ,balki ilmiy madaniy va texnologik imkoniyatlari ham kengaymoqda .Shuningdek adasbiyot san'at va matbuotda o'zbek tilining mavqei mustahkamlanib ,yangi ijodkorlar avlodi til imkoniyatlari ham kengaymoqda .Shuningdek, adabiyot ,san'at va matbuotda o'zbek tilining mavqei mustahkamlanib ,yangi ijodkorlar avlodi til imkoniyatlarini zamonaviy yondashuvda boyitishda davom etmoqda.Tishunoslar ,olimlar va pedagoglar tomonidan o'zbek tilining fonetikasi, grammatikasi ,stillistikasi va boshqa xususiyatlar chuqur o'rganilmoqda va bu borada ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda .Davlat tomonidan tashkil etilayotgan "O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi ","O'zbek tilida ish yuritish malaka kurslari" kabi tashabbuslar ham til taraqqiyotiga xizmat qilmoqda .Har yili 21-oktabrda nishonlanadigan "O'zbek tili bayrami " qilmoqda.

O'zbek tili ming yillar davomida turli tarixiy ,siyosiy va madaniy omillar ta'sirida rivojlanib bugungi zamonaviy adabiy til darajasiga yetdi. Har bir bosqich o'zbek xalqining tafakkuri ma'naviyati va madaniy yuksalishining aksidir . Til – millatning eng muhim belgisi bo'lganligi sababli ,uni rivojlantirish va asrab – avaylash har birimizning burchimizdir .

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. Mahmud Koshg'ariy Devoni lug'ati turk .Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutalilov .T,I-III –T;Fan ,1960-1963 .T.I1960 -499.T.II.1961 .427 T.III.1963
2. Mahvudov K.Ahmad Yugnakiy "Xibat ul xaqoyiq "asari xaqida ;kirish fonetika ,morfologiy matn ,transkripsiya sharx ,lug'at . T.Fan 1972.Fitrat .O'zbek adabiyoti namunalari –C,1928
3. Yusuf Xos Xojib Qutadg'u billig transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tasvif .Nashrga tayyorlovchi K. Karimov –T Fan 1971